



O'QUVCHILARNI KASB TANLASHIDA AMALIY KO'MAK BERISH

Islamova Ma'mura Sorabek qizi

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani 14-sonli

umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Kasb tanlash jarayonida yoshlarda sodir bo'ladigan o'ziga xos jarayonlar bu undagi jismoniy va ruhiy o'zgarishlarda, o'zidagi o'zgarishlar asosida o'zini katta inson bo'lib borayotganini bilib borishi, atrofdagilami unga nisbatan kattalardek munosabati va shu kabi jarayonlar insonni endi o'z hayotini qurish uchun kasb tanlashiga olib keladi.

Kalit so'zlar: Farovon hayot, kasb, hunar, kasbga yo'naltirish, to'g'ri kasb tanlash, bilim, malaka.

Hozirgi kunda yoshlarimizga nisbatan bildirilayotgan chuqur ishonch va e'tibor hamda yaratilayotgan imkoniyat, shart-sharoitlar ularni foydali kasb egasi, jamiyatda o'z o'rniga ega shaxs bo'lishi uchun zamin bo'lmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Kasb tanlash jarayonida yoshlarda sodir bo'ladigan o'ziga xos jarayonlar bu undagi jismoniy va ruhiy o'zgarishlarda, o'zidagi o'zgarishlar asosida o'zini katta inson bo'lib borayotganini bilib borishi, atrofdagilami unga nisbatan kattalardek munosabati va shu kabi jarayonlar insonni endi o'z hayotini qurish uchun kasb tanlashiga olib keladi. Kasb tanlash uchun esa unga bilim va malakalar juda zarurdir. Kasb tanlayotgan inson o'zining psixologik jarayonlarini va psixologik xususiyatlarini boshqarishi va ulardan foydalanishi zarur boiadi. Deylik, tikuvchilik yoki to'quvchilik kasbini o'zlashtirib borayotgan yosh



inson o'zida shu kasb talab qiladigan psixologik jarayonlarni rivojlantirishi va unga tayyor turishi kerak boladi. Tikuvchilikda psixologik jarayon sifatida dizaynga mos keladigan muhim psixologik jarayonlar talab qilinadi. Bu sezgirlik, didlilik, diqqatini o'sganligi, hayolini rivojlanganligi, ya'ni tasavvurlari chuqur va kengligi kabi ko'plab psixologik jarayonlar kerak bo'ladi. Shaxsning o'zi tanlagan kasbga layoqatliligi uni kelajagini ta'minlanganligini ko'rsatadi. O'z ishiga layoqatli inson umri bo'yicha o'ziga kerak bo'lgan ko'pgina narsalarga ega bo'ladi. Layoqatsiz inson esa o'zini hayotini qurishga imkoniyati bo'lmaganidan ko'pgina hollarda qiyinchiliklarga yo'liqadi. Kasbga layoqatlilikni shaxsda ikki yo'nalish bo'yicha muhokama qilish mumkin. Biri kasbni muvaffaqiyatli egallash orqali, ikkinchisi insonni o'zini mehnatidan qoniqishi orqali. Bu ko'rsatilgan ikki tomon ham nisbiy bolib, u subyektivlikni ko'rsatadi. Shunga qaramasdan shu ikkala yo'nalish kasbiy layoqatlilikni psixologik xarakteristikasini beradi.

Insonning tabiiy xususiyatlari juda katta, shuningdek cheksiz egiluvchanlik imkoniyatlarini beradi. Inson kasbning juda ko'p ko'rinishlariga moslashishi mumkin, va uni subyekt sifatida qondirishi ham mumkin. Inson egallay olmaydigan kasb juda kamdir. Kasbga tayyorgarlik va keyingi faoliyat har xil tarzda kechishi mumkin, bular undagi xususiyatlardan kelib chiqib davom etadi. Eng muhimi va zaruriy tomoni bu kasbiy yo'nalganlik bolib, unda ijobiy kasbiy motivatsiyalar muhim ro'l o'ynaydi. Psixologik diagnostika esa aynan kasbga xos bo'lgan insondagi psixologik jarayonlarni va xususiyatlarni o'lchaydigan, tahlil qiladigan va baholaydigan psixologiyaning yana bir yo'nalishi hisoblanadi. Bular asosan insonning amaliy hayotini o'rganishga qaratilgan jarayonlardir.

O'smirlar va ilk o'spirinlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo'lganligidan bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko'p hollarda



kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat'iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin.

Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, maktab o'quvchilari kasb tanlash borasidagi o'z qarorlarini, ko'pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko'pchiligi bu masalaga o'ngli ravishda yondashishga intiladilar]. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni yosh bosqichlarida o'quvchilarda quyidagi mazmunga ega bo'ladi: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad - ularni mehnat, kasb turlari, yo'nalishlari bilan tanishtirib borish va kasb faoliyatiga qiziqishni shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.X.Jalilova va b."Kasb psixologiyasi" o'q. Toshkent 2010
2. Gangus, V.G. "Xushmuomalalik ABC" - M.: ROSMEN, - 1996 yil
3. Романчук О.И. Синдром дефицита внимания и гиперактивности у детей / Пер. с украинского. — М.: Генезис, 2010